

O'zbekiston va Rossiya yetakchilari o'zaro manfaatli hamkorlikning dolzarb masalalarini ko'rib chiqdilar



5-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtaqidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Xalqaro kun tartibining dolzarb jihatlari yuzasidan ham fikr almashildi.

Davlat rahbarlari mamlakatlarimiz o'rtaqidagi ko'p qirrali hamkorlikning, eng avvalo savdo-iqtisodiy sohadagi sheriklikning bugungi rivojlanish sur'atini mammuniyat bilan qayd etdilar.

Prezidentlar Afg'onistonning shimoliy hududlaridagi ahvol yomonlashishi munosabati bilan Markaziy Osiyodagi vaziyatning rivojiga alohida to'xtalib o'tdilar. O'zbekiston va Rossianing vakolatli idora va tashkilotlari o'rtaqidagi muntazam muloqotlar va yaqin hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

Manba